XALQ DEPUTATLARI O’RTACHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-96-10-143-K/25 O’rtachirchiq tumani

O‘rta Chirchiq tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Toshkent viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1118-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29 -dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, O‘rta Chirchiq tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari **103 487 840,0 mln so‘m**, xarajatlari esa **103 487 840,0 mln so‘m** miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **408 217,0 mln so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman mahalliy byudjetiga 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 035 775.0 mln so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarhamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar stavkalarining mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari bo‘yicha tuman kesimida 2026-yil uchun belgilangan koeffitsiyentlar **6-ilovaga** muvofiq;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **7-ilovaga** muvofiq;

- noruda qurilish materiallari bo‘yicha (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **8-ilovaga** muvofiq;

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun 2026-yilda belgilangan soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Akbarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Razzakov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (M.Soatov) bilan birgalikda

2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari O‘rta Chrchiq tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi N.Xaitqulov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KASIMOV IXTIYOR RUSTAMOVICH**

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘m

T/r	Daromad turlari	O‘rta Chirchiq tumani
	JAMI	**103,487,840**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1,626,780
2	Foyda solig‘i	992,010
3	Aylanmadan olinadigan soliq	10,586,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4,279,600
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	2,068,000
	Aksiz solig‘i jami	2,067,900
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*2,067,900*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6,476,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12,592,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16,568,440
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	38,797,000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	510,000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4,692,600
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	5,606,000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2,242,400
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	1,080,200
15	Yig‘imlar	109,500
16	Jarimalar	901,810
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	140,000

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun O‘rta Chirchiq tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	O‘rta Chirchiq tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**103,487,840**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*29,915,789*
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*3,399,000*
2	Madaniyat bo‘limi	*783,976*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4,280,066*
4	Sport bo‘limi	*5,840,789*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1,690,900*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2,476,438*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2,881,954*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2,236,627*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*37,451,664*
	shundan:	*0*
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
	Madaniyat bo‘limi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*18,859,244*

	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*2,783,579*
	Zaxira jamg‘armasi	*1,035,775*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*893,396*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*893,396*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	15,036,241
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
3-ilova

O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjetiga 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

T/r	Soliqlar va to‘lovlar nomi	2026-yilda ajratma me’yorlari	
		Mahalliy byudjetga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0%	3 %
2	Foyda solig‘i	0%	3 %
3	Aylanmadan olinadigan soliq	0%	100%
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0%	5%
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i	100%	100%
6	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0%	10%
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	80%
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	0%	100%
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	47%
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	100%
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%
13	Davlat boji	10%	
14	Yig‘imlar	5%	
15	Jarimalar	7%	
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100%	

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, (1 kv.m uchun)	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, (1 kv.m uchun)
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)
O‘rta Chirchiq tumani		**1.00**	**1.00**
1	“A.Yo‘lbarisov” MFY	1.00	1.00
2	“Adola”t MFY	1.00	1.00
3	“Aranshi” MFY	0.90	0.90
4	“Arg‘in-Sada” MFY	1.20	1.10
5	“Beshboy” MFY	1.00	1.00
6	“Boyovul” MFY	1.00	0.80
7	“Bunyodkor” MFY	1.20	1.25
8	“Burgalik” MFY	1.00	1.00
9	“Galabotir” MFY	1.00	1.00
10	“Darxan” MFY	1.10	0.90
11	“Do‘stlik” MFY	1.10	1.00
12	“Yoriq” MFY	1.00	1.00

13	“Jang‘abay” MFY	1.00	0.90
14	“Yo‘ng‘ichqoli” MFY	1.10	1.00
15	“Qaytmas” MFY	1.00	1.00
16	“Kim Pen Xva” MFY	1.10	1.10
17	“Qorasuv” MFY	1.10	1.20
18	“Qunduzak” MFY	1.00	1.00
19	“Kuchlik” MFY	1.00	1.00
20	“Ko‘kmo‘yin” MFY	1.00	1.00
21	“Qo‘shdaryo” MFY	1.00	0.90
22	“Mash’al” MFY	1.10	1.10
23	“Mingtepa” MFY	1.00	0.90
24	“Mustaqillik” MFY	1.10	1.20
25	“Nomdanak” MFY	0.90	0.90
26	“Obod” MFY	1.00	1.00
27	“Olti o‘g‘il” MFY	1.00	1.00
28	“Rovatak” MFY	1.10	1.10
29	“Saidovul-Baxt” MFY	1.00	1.00
30	“Taraqqiyot” MFY	1.10	1.10
31	“Tinchlik” MFY	1.10	1.10
32	“Toshloq” MFY	1.00	1.00
33	“Uyg‘ur” MFY	1.10	1.10
34	“Usmon ota” MFY	1.00	1.00

35	“O‘rtaovul” MFY	1.00	1.00
36	“O‘rtasaroy” MFY	1.00	1.00
37	“O‘choqli” MFY	1.20	1.20
38	“Fayzobod” MFY	1.10	1.10
39	“Xalqobod” MFY	1.10	1.00
40	“Changtepa” MFY	0.90	0.90
41	“Chegara” MFY	1.00	0.90
42	“Sholikor” MFY	1.10	1.10
43	“Yuqoriovul” MFY	1.00	1.00
44	“Yangiyo‘l” MFY	1.00	0.90
45	“Yangilik” MFY	1.00	1.10
46	“Yangi turmush” MFY	1.10	1.10

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)
1	O‘rta Chirchiq tumani	1.00

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1	O‘rta Chirchiq tumani	1.05	1.05	1.10	1.05	1.0

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar
(qishloq xoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)				
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Oʻrta Chirchiq tumani	1.10	1.13	1.15	1.15	1.10	1.13	1.15	1.15

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	O‘rta Chirchiq tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.30	1.30

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-96-10-143-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Oʻrta Chirchiq tumani	1.10	1.00

* Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli